


2019-yil yanvar–sentyabr oylarida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan va ketgan shaxslar

Mamlakatning sayyohlik salohiyatini rivojlantirish uchun chet el fuqarolarini mamlakatga jalb qilish hukumat tomonidan qabul qilinayotgan ijobiy qarorlar tufayli yildan-yilga o‘shish kuzatilmoqda.

2019-yil yanvar–sentyabr oylarida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni 6055,3 ming kishini* tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 29,8 % ga ortgan.

2019-yil yanvar–sentyabr oylarida chet elga ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari soni 9771,2 ming kishini* tashkil etdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanganda esa bu ko‘rsatkich 9,6 % ga kam.

2018-2019-yil yanvar–sentyabr oylarida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ming kishi




* Respublikaga kelgan va ketganlarning umumiy sonida bir kishi bir necha marta hisoblanishi mumkin va bu alohida xolat sifatida hisobga olinadi

O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari sonining tahlilidan ko‘rinadiki, 2019-yil yanvar–sentyabr oylarida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1388,8 ming nafar ko‘p chet el fuqarolari tashrif buyurgan.


Ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari soni, 2018-yil yanvar–sentyabr oylarida 10812,0 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yil yanvar–sentyabr oylarida 9771,2 ming nafarni tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni dinamikasi



2019-yil yanvar–sentyabr oylarida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining 54,1 % (3273,1 ming kishi) erkaklar, 45,9 % (2782,2 ming kishi) ayollarni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari jinsi bo‘yicha,%



Shu bilan birga ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining 58,9 % (5756,3 ming kishi) erkaklar, 41,1 % (4014,9 ming kishi) ayollar tashkil etadi.

MDH davlatlaridan O‘zbekiston Respublikasiga 5586,0 ming kishi tashrif buyurgan bo‘lib, ularning 4026,6 ming nafari qarindoshlarni yo‘qlash maqsadida, 623,8 ming nafari tranzit orqali, 452,1 ming nafari sayyohlik maqsadida tashrif buyurgan.

Uzoq xorijiy davlatlardan O‘zbekiston Respublikasiga 469,3 ming kishi tashrif buyurgan. Ulardan 273,3 ming nafari sayyohlik maqsadida, 48,3 ming nafari qarindoshlarni yo‘qlash maqsadida, 21,5 ming nafari xizmat maqsadlarida tashrif buyurgan.



2019-yil yanvar–sentyabr oylarida O‘zbekiston Respublikasiga
kelgan chet el fuqarolarining soni, ming kishi

	Jami:	Safar maqsadlari:									
		xizmat yuzasidan	o‘qish	ish	sayyohlik	qarindoshlarni yo‘qlash	davolanish	doimiy yashash joyi	tijorat	tranzit	boshqa
Jami:	6055,3	38,5	18,2	40,8	725,3	4074,9	43,8	40,5	37,8	635,1	400,3
MDH mamlakatlari	5586,0	17,0	17,0	23,9	452,0	4026,6	43,7	36,3	9,3	623,8	336,4
boshqa xorijiy mamlakatlardan	469,3	21,5	1,2	16,9	273,3	48,3	0,09	4,2	28,5	11,3	64,0

Xalqaro turizm statistikasi bo'yicha tavsiyalarga muvofiq (BMTBTT-2008), "xizmat yuzasidan", "o'qish", "sayohat", "qarindoshlarni yo'qlash", "davolanish", "tijorat" maqsadlarni o'z ichiga olgan sayyohlik safarlari bilan O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida 4938,5 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 26,1 % ga oshgan.

O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasidan 1881,0 ming kishi (barcha tashrif buyurganlarning 31,1 %), Tojikistondan 1698,6 ming kishi (28,1 %), Qirg‘izistondan 1086,8 ming kishi (17,9 %), Rossiyadan 463,5 ming kishi (7,7 %), Turkmanistondan 412,0 ming kishi (6,8 %) va Belarusdan 14,5 ming kishi (0,2 %) tashrif buyurgan.


**2019 yil yanvar-sentyabr oylarida
yaqin xorij davlatlaridan
kelgan chet el fuqarolari**

	Qozog'iston 1881,0 ming kishi	31,1 %
	Tojikiston 1698,6 ming kishi	28,1 %
	Qirg'iziston 1086,8 ming kishi	17,9 %
	Rossiya 463,5 ming kish	7,7 %
	Turkmaniston 412,0 ming kishi	6,8 %
	Belarus 14,5 ming kishi	0,2 %
	Ukraina 14,0 ming kishi	0,2 %
	Ozərbayjon 9,9 ming kishi	0,2 %


**2019 yil yanvar-sentyabr oylarida uzoq xorijiy davlatlardan
O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni**

Uzoq xorijiy davlatlardan O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy qismi Turkiyadan 78,7 ming kishi (1,3 %), Xitoydan 45,5 ming kishi (0,8 %), Janubiy Koreyadan 32,0 ming kishi (0,5 %), Hindistondan 26,0 ming kishi (0,4 %), Germaniyadan 23,5 ming kishi (0,4 %), Yaponiyadan 18,8 ming kishi (0,3 %), Fransiya, Italiya va Isroil davlatlaridan mos ravishda 17,2, 16,9 va 11,5 ming kishi tashrif buyurgan.

Uzoq xorijiy davlatlardan O‘zbekiston Respublikasiga
kelgan chet el fuqarolari soni, %




Uzoq xorijiy davlatlardan O‘zbekiston Respublikasiga
kelgan chet el fuqarolari soni, ming kishi



O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy safar maqsadlari bu qarindoshlarni yo‘qlash - 67,3 %. Keyingi o‘rinlarda sayyohlik maqsadi – 12,0 %, tranzit – 10,5 %, davolanish maqsadi - 0,7 %, ishlash maqsadi - 0,7 %, doimiy yashash maqsadi - 0,7 %, xizmat yuzasidan va tijorat maqsadi - 0,6 %, o‘qish – 0,3 % va boshqa maqsadlar – 6,6 %.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo‘yicha taqsimlanishi, %




2019 yil yanvar-sentyabr oylarida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo‘yicha taqsimlanishidan ko‘rish mumkinki, ularning 52,1 % - 31–55 yoshlilar, 21,0 % - 19–30 yoshlilar, 17,9 % - 55 yosh va undan kattalar, 9,0 % - 0–18 yoshlilar tashkil etadi.

Davolanish maqsadida tashrif buyurgan chet el fuqarolarining 50,7 % - 31–55 yoshlilar, 21,5 % - 19–30 yoshlilar, 19,3 % - 56 yosh va undan kattalar tashkil etadi. Qarindoshlarni yo‘qlash maqsadida tashrif


buyurganlarning 50,9 % - 31–55 yoshlilar, 19,0 % - 19–30 yoshlilar, 22,2 % - 56 yosh va undan kattalar tashkil etadi.

Sayyohlik maqsadlarida tashrif buyurganlarning 51,2 % 31–55 yoshlilar, 20,5 % - 19–30 yoshlilar, 22,0 % - 56 yosh va undan kattalar tashkil etadi.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining taqsimlanishi, %




2019 yil yanvar-sentyabr oylarida xizmat safari maqsadida kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi



2019 yil yanvar-sentyabr oylarida sayyohlik maqsadida kelgan 18 yoshgacha bo'lgan chet el fuqarolarining 22,5 ming nafari erkaklar va 21,7 ming nafari ayollar, 19-30 yoshlilarning 75,9 ming nafari erkaklar va 73,0 ming nafari ayollar, 31-55 yoshlilarning 186,8 ming nafari erkaklar va 184,4 ming nafari ayollar, 56 yosh va undan kattalarning 67,5 ming nafari erkaklar va 93,6 ming nafari ayollardan iborat.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida sayyohlik maqsadida kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo‘yicha taqsimlanishi, ming kishi




2019 yil yanvar–sentyabr oylarida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaridan 9307,4 ming nafar kishi MDH davlatlariga tashrif buyurgan bo‘lib, ularning 5527,6 ming nafari qarindoshlarni yo‘qlash maqsadida, 2710,0 ming nafari ishlash maqsadida, 183,5 ming nafari sayyohlik maqsadida tashrif buyurgan.

Uzoq xorijiy davlatlarga esa O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaridan 463,9 ming kishi tashrif buyurgan bo‘lib, ulardan 288,8 ming nafari sayyohlik maqsadida, 63,8 ming nafari ishlash maqsadida tashrif buyurgan.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida safar maqsadlari bo'yicha ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni, ming kishi


	Jami:	Safar maqsadlari:								
		xizmat yuzasidan	o'qish	ish	sayyohlik	qarindoshlarni yo'qlash	davolanish	doimiy yashash joyi	tranzit	boshqa
Jami:	9771,2	68,9	66,0	2773,7	472,4	5557,9	30,1	285,5	53,1	463,6
MDH mamlakatlari	9307,4	63,4	53,5	2710,0	183,5	5527,6	24,4	281,8	52,8	410,4
boshqa xorijiy mamlakatlarga	463,9	5,5	12,5	63,8	288,8	30,3	5,7	3,7	0,3	53,3

Ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jinsi bo'yicha, %



2019 yil yanvar-sentyabr oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, xizmat yuzasidan ketganlarning 90,6 % erkaklar, 9,4 % ayollar, o'qish maqsadida ketganlarning 62,6 % erkaklar, 37,4 % ayollar, sayyohlik maqsadida ketganlarning 51,7 % erkaklar, 48,3 % ayollar, ishlash maqsadida ketganlarning 77,2 % erkaklar, 22,8 % ayollar, qarindoshlarni yo'qlash maqsadida ketganlarning 48,0 % erkaklar, 52,0 % ayollar, davolanish maqsadida ketganlarning 44,4 % erkaklar, 55,6 % ayollar tashkil etadi.

Ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining jinsi va safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi, %



Ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining jinsi va safar maqsadlari bo‘yicha taqsimlanishi, ming kishi




Chet elga ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy qismi, ya‘ni 43,5 % Qozog‘iston Respublikasiga (4246,4 ming kishi), 28,7 % Qirg‘iziston Respublikasiga (2799,9 ming kishi), 10,8 % Rossiyaga (1050,7 ming kishi), 11,5 % Tojikistonga (1119,0 ming kishi), Turkmaniston, Belarus va Ozarbayjonga mos ravishda 70,1, 11,1 va 10,2 ming kishi tashrif buyurgan.


2019-yil yanvar–sentyabr oylarida MDH davlatlariga ketgan
O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni, %



2019-yil yanvar–sentyabr oylarida MDH davlatlariga ketgan
O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni, ming kishi




2019-yil yanvar–sentyabr oylarida uzoq xorijiy davlatlarga ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni, ming kishi



Chet elga ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolardan 168,4 ming kishi Turkiyaga, 64,2 ming kishi Janubiy Koreyaga, 45,6 ming kishi BAAGA, 33,6 ming kishi Saudiya Arabistoniga, 25,9 ming kishi Xitoyga, 20,5 ming kishi Hindistonga va 19,1 ming kishi AQShga tashrif buyurgan.

2019-yil yanvar–sentyabr oylarida chet elga ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo‘yicha taqsimlanishidan ko‘rish mumkinki, ularning 56,9 % qarindoshlarni yo‘qlash maqsadida, 28,4 % ishlash maqsadida, 2,9 % doimiy yashash maqsadida, 4,8 % sayyohlik maqsadida, 0,7 % xizmat yuzasidan, 0,5 % tranzit, 0,7 % o‘qish maqsadida, 0,3 % davolanish maqsadida va 4,7 % boshqa maqsadlarda ketgan.

2019-yil yanvar–sentyabr oylarida chet elga ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining yoshi bo‘yicha taqsimlanishi, %



2019-yil yanvar–sentyabr oylarida chet elga ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining yoshi bo‘yicha taqsimlanishidan ko‘rish mumkinki, ularning 52,2 % – 31 – 55 yoshlilar, 29,9 % – 19 – 30 yoshlilar va 12,3 % 56 yosh va undan kattalar, 5,6 % 18 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi.

Sayyohlik maqsadida xorijda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining 50,6 % – 31 – 55 yoshlilar, 20,3 % – 19 – 30 yoshlilar, 19,6 % - 56 yosh va undan kattalar tashkil etadi. O‘qish maqsadida ketganlarning 77,5 % – 19 – 30 yoshlilar, 16,4 % – 18 yoshgacha bo‘lgan fuqarolar tashkil etadi. Xizmat maqsadlarida tashrif buyurganlarning 69,6 % 31 – 55 yoshlilar, 18,4 % 19 – 30 yoshlilar tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi
Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish statistikasi boshqarmasi
Nashr uchun mas’ul: X.Murodhujaev, Tel: (71) 230-80-69